


	Yer to'g'risidagi fanlar	
t/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natijalar
2	Bir jinsli bo'lmagan ko'p qatlamli zaminda joylashgan poydevor inshootlariga seysmik kuchlar ta'sirini baholash 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: – bir jinsli bo'lmagan ko'p qatlamli zaminda joylashgan poydevor inshootlarining seysmik ta'sirlardagi dinamik xatti-harakatini baholash uchun zamin–poydevor o'zaro ta'sirini hisobga olgan takomillashtirilgan fazoviy hisoblash modeli va metodikasi ishlab chiqiladi. – zamin qatlamlarining chuqurlik bo'yicha o'zgaruvchan fizik-mexanik xossalarini inobatga olgan holda poydevor inshootlarida ko'chishlar, deformatsiyalar va ichki kuchlanishlarning taqsimlanish qonuniyatlari aniqlanadi hamda me'yoriy hisoblashlarda qo'llanilayotgan ekvivalent zamin yondashuvining qo'llanish chegaralari ilmiy jihatdan asoslanadi; olingan natijalar asosida seysmik hududlarda poydevor inshootlarini loyihalash va hisoblash amaliyoti uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi hamda texnik me'yorlash va standartlashtirish sohasida qo'llash uchun takliflar tayyorlanadi. Natijalarni sinovdan o'tkazish. Olingan natijalar Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.